



UO*К (UDC): 159.922.7

Munavvar TOIROVA,

Tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

E-mail: munavvartoirova1070@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5245-2204>

BuxDPI professori, p.f.d. J.Ramazonov taqrizi asosida

SYSTEMIC-COMPONENT ANALYSIS OF NATIONAL IDENTITY FORMATION IN ADOLESCENTS AND ITS SOCIO-PSYCHOLOGICAL TYPES

Annotation

This study investigates the structural and dynamic characteristics of national and ethnic identity among adolescents amidst the ongoing digitalization and transformation of the modern information environment. Utilizing a systemic approach, an optimized 20-item questionnaire synthesized from J. Phinney's Multigroup Ethnic Identity Measure (MEIM) and G. U. Soldatova's methodology was administered to evaluate the cognitive and affective components of ethnic self-awareness, as well as its socio-psychological behavioral patterns (adequate ethnic norm, ethnic nihilism, and hyperidentity/ethnocentrism) (N=78). The empirical data were statistically analyzed using the independent samples Student's t-test across gender and regional (urban vs. rural) dimensions. The findings provide a comprehensive empirical baseline for developing target psycho-pedagogical interventions aimed at fostering positive ethnic identity and multicultural tolerance among contemporary youth.

Keywords: Ethnic identity, adolescence, systemic analysis, cognitive component, affective component, adequate ethnic norm, ethnic nihilism, hyperidentity, Student's t-test.

СИСТЕМА-КОМПОНЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ПОДРОСТКОВ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТИПЫ

АННОТАЦИЯ

В данном исследовании изучаются структурные и динамические особенности национальной и этнической идентичности подростков в условиях продолжающейся цифровизации и трансформации современной информационной среды. С использованием системного подхода был применен оптимизированный опросник из 20 пунктов, синтезированный на основе «Методики изучения многогрупповой этнической идентичности» (MEIM) Дж. Финни и методики Г. У. Солдатовой, для оценки когнитивного и аффективного компонентов этнического самосознания, а также его социально-психологических поведенческих моделей (адекватная этническая норма, этнический нигилизм и гиперидентичность/этноцентризм) (N = 78). Эмпирические данные были статистически проанализированы с использованием t -критерия Стьюдента для независимых выборок в гендерном и региональном (городская и сельская местность) разрезах. Полученные результаты представляют собой комплексную эмпирическую базу для разработки целевых психолого-педагогических интервенций, направленных на формирование позитивной этнической идентичности и поликультурной толерантности среди современной молодежи.

Ключевые слова: Этническая идентичность, подростковый возраст, системный анализ, когнитивный компонент, аффективный компонент, адекватная этническая норма, этнический нигилизм, гиперидентичность, t -критерий Стьюдента.

GLOBAL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'SMIRLAR ETNIK IDENTIKLIGINING TIZIMLI-KOMPONENTLI TAVSIFI VA ISHONCHLILIK DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda axborotlashgan jamiyat va raqamli submadaniyatlar bosimi ostida voyaga yetayotgan o'smirlarning milliy hamda etnik o'zlikni anglash xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Empirik o'rganish doirasida J. Finni hamda G.U. Soldatova metodologiyalarining sinteziga tayangan holda shakllantirilgan 20 bandli ixcham so'rovnomanadan foydalanildi (N=78). Tadqiqotda o'smirlar milliy identikligining tarkibiy qismlari (kognitiv va affektiv darajalar) hamda ularning ijtimoiy-psixologik namoyon bo'lish tiplari (etnik norma, nigilizm, giperidentiklik) o'rganilgan. Guruhlararo farqlar jins va demografik muhit (shahar/qishloq) omillari bo'yicha Student t-kriteriyi yordamida statistik tahlildan o'tkazildi. Olingan natijalar o'smirlar muhitida sog'lom etnik tolerantlik va ijobiy ijtimoiy adaptatsiyani loyihalash uchun amaliy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Etnik identiklik, o'smirlik, tizimli tahlil, kognitiv va affektiv komponentlar, adekvat etnik norma, etnik nigilizm, etnolokaut, Student t-kriteriyi.

Kirish. Zamonaviy sotsiomadaniy makonning jadal raqamlashuvi, virtual olamning (TikTok, Instagram, Telegram kabi platformalar) o'smirlar hayotiga shiddat bilan kirib kelishi an'anaviy sotsializatsiya institutlarining funksiyalarini sezilarli darajada transformatsiya qilmoqda. Global axborot oqimi sharoitida shaxs shakllanishining eng nozik va inqirozlarga boy davri hisoblangan o'smirlik yoshida o'zlikni anglash inqirozlari (identiklik difuziyasi) tez-tez kuzatilmoqda. Bunday beqaror

sharoitda o'smir shaxsining ma'naviy-ruhiy himoya filtri, ichki tayanchi va sotsial mo'ljal vazifasini aynan milliy qadriyatlar tizimi hamda etnik identiklik fenomeni bajaradi.

O'smiring "Men qaysi madaniy-tarixiy muhitga tegishliman?" degan savolga adekvat va ijobiy javob topishi uning kelajakdagi ijtimoiy barqarorligini hamda jamiyatga integratsiyalashuvini belgilovchi eng muhim omildir. Shu bois, bugungi kun psixologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri

o'smirlarda milliy o'zlikni anglashning tarkibiy tuzilishini hamda uning deformatsiyalangan shakllarini vaqtida tashxislash va korreksiyalash hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Murakkab psixik hodisalarni yaxlit va ko'p bosqichli tizim sifatida tadqiq etish metodologiyasi B.F. Lomov va V.M. Bexterevlarning tizimli yondashuv tamoyillariga asoslanadi [1]. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan, etnik identiklik shaxs tarkibidagi statik shakllanish emas, balki aynan o'smirlik davrida (11–17 yosh) o'zining faol va dinamik rivojlanish bosqichiga kiradigan dinamik tizimdir [5].

M.Yu. Kondratyev va V.A. Ilyinlar o'smirlik yoshida shakllangan psixologik identiklik darajasi shaxsning kelgusi mustaqil hayotidagi sotsial faolligi va psixologik salomatligini belgilashini ta'kidlaydilar [7]. G.U. Soldatova va O.M. Dagbayevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda etnik o'zlikni anglashning me'yoriy va destruktiv shakllari chuqur yoritilgan bo'lib, ular subyektning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligiga qarab tiplarga (etnik norma, nigilizm, etnotsentrizm/giperidentiklik) ajratiladi [4]. Bugungi kunda o'smir o'zligining shakllanishi faqat mikromuhit bilan cheklanmay, raqamli media-iste'mol, geografik hudud hamda

1-jadval. Tadqiqot obyekti demografik tarkibi (N=78)

Omillar	Guruhlar	Chastota (n)	Nisbat (%)
Jinsiy mansublik	O'g'il bolalar	48	61.5%
	Qiz bolalar	30	38.5%
Hududiy omil	Qishloq joylar	57	73.1%
	Shahar muhiti	21	26.9%

Metodika kaliti va shkalalarning taqsimlanishi:

J. Finni modeli bo'yicha: Kognitiv komponent (1, 3, 5, 13, 15, 19-savollar); Affektiv komponent (7, 9, 11, 17, 18, 20-savollar). G.U. Soldatova modeli bo'yicha: Etnik Norma (Adekvatlik) (2, 8-savollar); Etnik Nigilizm (4, 10, 14-savollar); Giperidentiklik (Etnotsentrizm) (6, 12, 16-savollar).

2-jadval. Diagnostik shkalalar bo'yicha umumiy statistik ko'rsatkichlar (N=78)

Diagnostik o'lchovlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)
Finni: Kognitiv komponent	2.84	0.61
Finni: Affektiv komponent	3.20	0.64
Finni: Umumiy identiklik darajasi	3.02	0.56
Soldatova: Etnik Norma	3.15	0.71
Soldatova: Etnik Nigilizm	2.42	0.70
Soldatova: Giperidentiklik	3.07	0.64

Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, J. Finni modeli bo'yicha Affektiv komponent (M=3.20) Kognitiv komponentga (M=2.84) nisbatan sezilarli darajada ustunlikka ega. Bu holat zamonaviy o'smirlarda o'z millatiga nisbatan yuqori hissiy bog'liqlik, g'urur va faxrlanish tuyg'ulari shakllanganligini, biroq milliy tarix, adabiyot hamda etnik

gender omillarining o'zaro murakkab kesishuvida (interseksionallik) kechadi [3]. Mazkur nazariy qarashlar empirik tadqiqotimiz gipotezalarini shakllantirishda xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Empirik o'rganish jarayonida respondentlarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning charchab qolmasligi va savollarga maksimal darajada samimiy javob berishini ta'minlash maqsadida 20 ta tasdiqdan iborat ixcham, yagona so'rovnoma shakllantirildi. Mazkur metodika tarkibiga J. Finni (MEIM) va G.U. Soldatova yondashuvlarining diagnostik savollari sintez qilindi. Ko'rsatkichlarni baholash 4 balli Liker shkalasi yordamida amalga oshirildi (4 ball – to'liq qo'shilaman, 1 ball – mutlaqo qo'shilmayman).

Tanlanmaning demografik strukturasi:

Tadqiqotning yakuniy empirik bazasini to'liq to'ldirilgan va mantiqiy süzgichdan o'tkazilgan N=78 nafar o'smirlarning anketalari tashkil etdi. Sinaluvchilarning o'rtacha yoshi M = 15.99 yoshni, standart og'ish esa SD = 1.90 ni tashkil qildi. Tanlanmaning demografik ko'rsatkichlari 1-jadvalda batafsil aks ettirilgan.

4. Tahlil va natijalar.

4.1. Etnik identiklik ko'rsatkichlarining umumiy tavsifi

To'plangan boshlang'ich empirik ma'lumotlarga o'tkazilgan tavsifiy statistik tahlillar o'smirlar o'rtasida milliy o'zlikni anglash tizimining ijobiy va yetarlicha barqaror ekanligini tasdiqlamoqda (2-jadval).

an'analarni chuqur o'rganishga bo'lgan intilish (ya'ni kognitiv-ongli daraja) ustida qo'shimcha pedagogik-psixologik ishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

G.U. Soldatova metodologiyasi doirasida Etnik Norma (M=3.15) eng yuqori natijani qayd etdi. Bu o'smirlarning o'z etnik muhitini ardoqlashi bilan bir vaqtda, o'zga millat

vakillariga nisbatan ham adekvat tolerant munosabatda ekanliklaridan dalolat beradi. Shuning bilan birga, Giperidentiklik ko'rsatkichi ($M=3.07$) ham ancha yuqori nuqtada qayd etilgan bo'lib, buni o'smirlik yoshiga xos bo'lgan subyektiv maksimalizm, "o'zlariniki" bo'lgan guruhni idealizatsiya qilish va guruh ichki manfaatlarini ustun qo'yish ehtiyojlari bilan izohlash mumkin. Etnik Nigilizm ko'rsatkichi ($M=2.42$) esa eng minimal qiymatga ega bo'ldi, bu o'smir yoshlar orasida milliy qadriyatlardan begonalashish yoki ularni

inkor etish kayfiyatlari ommaviy xarakterga ega emasligini anglatadi.

4.2. Jins va hududiy mikromuhit omillari bo'yicha differensial tahlil

Respondentlarning jinsi va yashash sharoiti ularning milliy identikligi shakllanishiga qay darajada ta'sir etishini aniqlash maqsadida guruhlararo farqlar mustaqil tanlanmalar uchun mo'ljallangan Student t-kriteriyi yordamida tekshirildi (3-jadval).

3-jadval. Jins va hudud omillari kesimida shkalalararo farqlarning statistik tahlili

Shkalalar	O'g'il (M)	Qiz (M)	t- qiymat	p- daraja	Shahar (M)	Qishloq (M)	t- qiymat	p- daraja
Finni_Kognitiv	2.74	3.00	-1.86	0.068	2.69	2.89	-1.15	0.258
Finni_Affektiv	3.14	3.30	-1.11	0.274	3.13	3.23	-0.60	0.550
Finni_Umumiy	2.94	3.15	-1.65	0.104	2.91	3.06	-1.00	0.323
Soldatova_Norma	3.15	3.17	-0.13	0.900	3.02	3.20	-0.90	0.378
Soldatova_Nigilizm	2.34	2.54	-1.24	0.220	2.52	2.38	0.87	0.389
Soldatova_Giper	3.10	3.02	0.59	0.555	3.10	3.06	0.21	0.839

Olingan natijalarning ilmiy-statistik talqini:

Jins omilining ta'siri: O'g'il va qiz bolalarning etnik o'zlikni anglash ko'rsatkichlarida qat'iy statistik farqlar ($p > 0.05$) aniqlanmadi. Demak, umumiy sotsializatsiya sharoiti har ikki jins vakillari uchun ham o'xshash dinamikaga ega. Shunga qaramay, Finni bo'yicha Kognitiv komponent ko'rsatkichi qizlarda ($M=3.00$) o'g'il bolalarga ($M=2.74$) qaraganda yuqoriroq bo'lib, statistik ishonchlik chegarasiga yaqin kelgan ($t = -1.86$, $p = 0.068$). Bu holat qiz bola o'smirlarning o'z milliy madaniyati, an'analari va tarixiy ildizlariga nisbatan biroz yuqoriroq qiziqish namoyon etishidan dalolat beradi.

Hudud omilining ta'siri: Shahar va qishloq muhitida yashayotgan o'smirlarning munosabatlarida ham matematik jihatdan ishonchli farqlar tasdiqlanmadi ($p > 0.05$). Ammo tendensiyaviy jihatdan, qishloq sharoitidagi o'smirlarda adekvat etnik norma ($M=3.20$) shahar maktablariga ($M=3.02$) nisbatan yuqoriroqligi, shahar o'smirlarida esa etnik nigilizm unsurlari ($M=2.52$) qishloq joylariga ($M=2.38$) qaraganda biroz ustunligi ko'zga tashlanadi. Mazkur holat shahar muhitidagi intensiv internet integratsiyasi va transmadaniy medianing sotsializatsiya jarayonlariga kuchliroq aralashayotgani bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Tizimli-komponentli yondashuv asosida olib borilgan empirik tadqiqot natijalari zamonaviy

o'smirlarda milliy o'zlikni anglash strukturasi asosan adekvat va sog'lom etnik normalarga (umumiy tanlanmaning qariyb 58% qismida barqaror norma) tayanishini ko'rsatdi. O'smirlarda o'z milliy madaniy sivilizatsiyasiga daxldorlik hissi yuqori. Biroq, kognitiv darajaning affektiv darajadan ortda qolishi hamda ma'lum ma'noda giperidentiklik tendensiyalarining mavjudligi quyidagi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

Raqamli makonda maqsadli etnik kontentni loyihalash: Ijtimoiy tarmoqlar makonida o'smir yoshlar uchun jozibador, zamonaviy vizual va interaktiv formatlarda tayyorlangan, milliy kontentlarni (tarix, milliy brendlar, madaniyat) ko'paytirish orqali identiklikning kognitiv komponentini tizimli boyitish.

Preventiv korreksion dasturlarni joriy etish: O'smirlar yoshidagi maksimalizm va giperidentiklik kayfiyatlarini ijobiy ijtimoiy-foydali faoliyatga yo'naltirish, shaxsning o'z millatiga bo'lgan sadoqatini saqlagan holda, polimadaniy dunyoda boshqa etnik guruhlariga nisbatan tolerantlik va madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantiruvchi psixologik treninglar tizimini yo'lga qo'yish.

ADABIYOTLAR

1. Lomov B. F. Metodologicheskie i teoreticheskie problemi psixologii. – M.: Nauka, 1984. – 444 s.
2. Bexterev V. M. Izbrannye trudy po sotsialnoy psixologii. – M.: Nauka, 1994. – 305 s.
3. Cherkevich E. A. Integrativniy podxod k razvitiyu etnicheskoy identichnosti obrazovatelnoy sredi // Psixologicheskiy jurnal. – 2022. – T. 43, № 2. – S. 303-309.
4. Dagbaeva O. M. Teoreticheskie osnovy etnicheskoy identichnosti podrostkov // Sotsialnaya psixologiya obshchestva. – 2018. – № 4. – S. 145-152.
5. Snejkova I. A. Formirovanie etnicheskogo samosoznaniya u detey i podrostkov // Sovetskaya etnografiya. – 1982. – № 6. – S. 80-88.
6. Xotinets V. Yu. Psixologiya etnicheskogo samosoznaniya. – Ekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2000. – 262 s.
7. Kondratyev M. Yu., Ilyin V. A. Azbuka sotsialnogo psixologa-praktika. – M.: Per Se, 2007. – 464 s.